

**IQTISODIYOT YO‘NALISHI TALABALARIGA «MARKET
COMPETITION» MAVZUSINI INGLIZ TILIDA O‘RGATISH XUSUSIYATLARI
(CLIL METODIKASI ASOSIDA)**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

1 bosqich magistranti **Tanatarova Norgul**

Ilmiy rahbar: **Muxitdinova Munira Ravshanovna**

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun «Market Competition» (bozor raqobati) mavzusini ingliz tilida o‘qitish jarayonining ilmiy-metodik asoslari CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. CLIL metodikasi fan va tilni birgalikda o‘qitish orqali talabalar bilimini mazmunan chuqurlashtirish, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish va ingliz tilidagi kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan integratsion yondashuv sifatida qoraladi.

Maqolada «Market Competition» mavzusining o‘ziga xos jihatlari – raqobat turlari (perfect, monopolistic, oligopoly), narx shakllanishi, bozor strukturalari, iste‘molchi xulqi va davlatning tartibga solish siyosati ingliz tilida o‘rgatilishining afzalliklari yoritilgan. CLIL yondashuvi asosida olib borilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning iqtisodiy terminologiyani o‘zlashtirish darajasi, ingliz tilida iqtisodiy fikr bildirish, tahlil yuritish va taqdimot ko‘nikmalari an‘anaviy o‘qitish usullariga nisbatan yuqori natija ko‘rsatilgan.

Maqola doirasida CLILning asosiy komponentlari – Content (mazmun), Communication (muloqot), Cognition (tafakkur), Culture (madaniyat) – asosida ishlab chiqilgan dars modeli tahlil qilinadi. O‘quv jarayonida til va fan o‘rtasidagi tabiiy integratsiya talabalarni mustaqil fikrlash, iqtisodiy sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va ularni ingliz tilida izohlashga yo‘naltirgan. Shuningdek, CLIL asosidagi mashg‘ulotlarda talabalar global iqtisodiy misollar (masalan, Apple – Samsung, Coca-Cola – Pepsi raqobati) orqali real iqtisodiy holatlarni tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, «Market Competition» mavzusini CLIL metodikasi orqali o‘qitish iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalar uchun lingvistik, kognitiv va kasbiy kompetensiyalarni bir vaqtda rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodika o‘quvchilarni nafaqat ingliz tilida so‘zlashuvchi, balki iqtisodiy tafakkur yurita oluvchi, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: CLIL, market competition, iqtisodiy ta‘lim, fan va til integratsiyasi, lingvistik kompetensiya, raqobat turlari, kommunikativ metodika, kasbiy muloqot.

KIRISH

Iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilida o‘qitiladigan mavzulardan biri – «Market Competition» (bozor raqobati) – iqtisodiy nazariyaning eng asosiy va fundamental yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur tushuncha bozor mexanizmlarining ishlash tamoyillarini,

raqobat shakllarini, narx belgilanishi, ishlab chiqaruvchilar strategiyasi va davlatning tartibga solish rolini o‘rganishga imkon beradi. Shu sababli, bu mavzuni ingliz tilida o‘qitish talabalarning iqtisodiy tafakkurini global kontekstda shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Market Competition» mavzusi CLIL metodikasi asosida o‘qitilganda, talaba nafaqat yangi terminlarni (perfect competition, monopoly, oligopoly, price competition, non-price competition, market share) o‘rganadi, balki ushbu tushunchalarni real iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘lab tahlil qilish, ularni ingliz tilida izohlash va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. CLIL yondashuvi orqali o‘qitiladigan darslar interaktiv mashg‘ulotlar, muhokama, case-study, taqdimot, grafik tahlil va jamoaviy loyiha faoliyatlari bilan boyitiladi. Bu esa talabalarning muloqot, tahlil va kasbiy tafakkur ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

METODLAR

Mazkur tadqiqot «Market Competition» mavzusini ingliz tilida o‘qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasining samaradorligini aniqlash va o‘quv jarayonida uni qo‘llashning metodik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil metodi: CLIL metodikasi bo‘yicha ilg‘or xorijiy va mahalliy adabiyotlar o‘rganiladi (Coyle, Marsh, Mehisto, Dalton-Puffer, Bentley, Karimova va boshqalar). Shu asosida «Market Competition» mavzusini integratsiyalashgan o‘qitish modeli ishlab chiqiladi.
2. Eksperimental metod: CLIL asosida darslarni tashkil etish, til va mazmun integratsiyasini amaliyotda sinovdan o‘tkazish maqsadida tajriba o‘tkaziladi.
3. Kuzatuv va diagnostika: Talabalarning darsdagi faolligi, muloqot darajasi, terminologiyani ishlatish qobiliyati, nutq madaniyati muntazam kuzatilib, sifat tahlili o‘tkaziladi.
4. So‘rovnoma va intervyu: Mashg‘ulotlar yakunida talabalar va o‘qituvchilardan CLIL asosidagi darslarga nisbatan fikr va munosabatlar o‘rganiladi.
5. Tahliliy baholash: CLIL yondashuvi asosida o‘qitilgan guruh bilan an‘anaviy usulda o‘qitilgan guruh natijalari taqqoslanadi.

O‘quv jarayoni CLIL metodikasi talablariga ko‘ra quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Bosqich	Faoliyat mazmuni	O‘qituvchi roli	Talaba roli	Kutilgan natija
1. Til tayyorlov bosqichi (Language Input)	«Market», «Competition», «Monopoly», «Oligopoly», «Perfect competition» kabi atamalarni o‘rganishadi	Yangi terminlarni tushuntiradi, misollar keltiradi	So‘zlar talaffuz qiladi, gaplarda ishlatadi	Talabalar iqtisodiy terminologiyani bilib oladi

2. Mazmunni tushuntirish (Content Delivery)	Bozor raqobatining turlari va qonuniyatlarini ingliz tilida tushuntirishadi	Nazariy materialni ingliz tilida tushuntiradi, vizual grafiklardan foydalanadi	Tingla ydi, yozib oladi, savol beradi	Mazmunni tushunish va iqtisodiy tushunchalarni ingliz tilida anglashadi
3. Integratsion faoliyat (Integration)	Guruhda «Market Competition in Uzbekistan» mavzusida tahliliy muhokama	Jarayonni boshqaradi, savol beradi	Fikr bildiradi, tahlil qiladi, o‘z fikrini himoya qiladi	Iqtisodiy tafakkur va muloqot ko‘nikmasi rivojlanadi
4. Amaliy bosqich (Task-based learning)	Real kompaniyalar misolida raqobat tahlili (Coca-Cola va Pepsi, Beeline va Ucell)	Rol o‘yinlarini tashkil qiladi	Rolga kiradi, ingliz tilida muhokama qiladi	Talabalar kasbiy muloqotda ishtirok etadi
5. Baholash (Assessment)	Til va fan integratsiyasini baholash: test, taqdimot, muhokama	Natijalar ni tahlil qiladi	O‘z fikrini yozma va og‘zaki ifoda etadi	Talabalar CLIL kompetensiyalarini namoyon etadi

MUNOZARA

CLIL yondashuvi «Market Competition» mavzusini o‘qitishda quyidagi metodik afzalliklarni ko‘rsatdi: 1) til va mazmun uyg‘unligi: talabalar fan terminlarini kontekstda o‘rganadi, ya’ni «the more firms in the market, the higher the competition» kabi real jumlar orqali grammatikani tabiiy o‘zlashtiradi; 2) kognitiv faollik: darslar davomida talabalar bozor raqobati modellari o‘rtasidagi farqlarni mustaqil tahlil qiladi va o‘z xulosalarini ingliz tilida asoslaydi; 3) kommunikativ yondashuv: har bir mashg‘ulotda interaktiv muloqot, bahs va tahliliy suhbatlar orqali iqtisodiy kommunikatsiya ko‘nikmalari rivojlantiradi; 4) madaniy jihat: talabalar global brendlar, xalqaro kompaniyalar o‘rtasidagi raqobatni ingliz tilida muhokama qilib, madaniyatlararo iqtisodiy tafakkurni shakllantiradi.

Shuningdek, CLIL darslarida o‘qituvchi «ma’lumot beruvchi» emas, balki facilitator – ya’ni o‘quv jarayonini yo‘naltiruvchi, til va mazmun o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi shaxsga aylanadi. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlash va ijodiy tahlilga yo‘naltiradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press. 2010
2. Marsh, D. (2002). CLIL/EMILE – The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential. European Commission, Brussels.
3. Mehisto P., Marsh, D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Oxford: Macmillan Education. 2008
4. Dalton-Puffer C. Content-and-Language Integrated Learning: From Practice to Principles? Annual Review of Applied Linguistics, 31, 182-204. 2011
5. Bentley K. The TKT Course: CLIL Module. Cambridge University Press. 2010
6. Brown H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 2nd ed. Pearson Education. 2001
7. Mankiw N. G. Principles of Economics. 9th Edition. Cengage Learning. 2020
8. Krugman, P., & Wells, R. Economics. 5th Edition. Worth Publishers. 2018

Global
Science
Publication